

Xalq deputatlari viloyat Kengashining yigirma yettinchi sessiyasi 26-fevral kuni o'tkaziladi

Bulung'ur tumanida 500 MVt quvvatga ega shamol, Nurobod tumanida 1000 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyalari qurilishi boshlangan

Ona va bola salomatligiga bag'ishlangan dolzarb masalalar Samarqandda muhokama qilindi

Samarqandda "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etiladi



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 25-fevral, chorshanba,
17 (24.197)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ish kuchini
yelga berma,
yerga ber



Agrar sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov viloyatimizda agrar sohada amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Jumladan, Samarqand tumanida "Samarqand Group" MChJ tomonidan 70 sotix maydonda barpo etilgan banan plantatsiyasida tropik ekinlarni issiqxona sharoitida mahalliy iqlimga moslashtirish bo'yicha ilg'or agrotexnologiyalar ko'zdan kechiriladi. Mazkur issiqxonada mahalliy iqlimga moslashtirilgan bananning "Qirol-lik" ("Korolevskiy") navi parvarishlanmoqda.

Zamonaviy parvarish tizimi, harorat va namlikni avtomatik boshqarish, o'simliklarni oziqlantirishning ilmiy asoslangan usullari hosildorlikning yuqori bo'lishini ta'minlamoqda.

I.Abdurahmonov plantatsiyani ko'zdan kechirish jarayonida issiqxona xo'jaligini kengaytirish, resurs tejama kor texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, o'simliklarni oziqlantirishda organik o'g'itlardan samarali foydalanish yuzasidan tavsiyalar berdi. Bunday innovatsion loyihalar import o'rni bosuvchi mahsulotlar yetishtirish hamda eksportbop mahsulotlar hajmini oshirishda muhim ahamiyatga ega.



O'zbekiston qishloq xo'jaligi vaziri viloyat mas'ullari, fermer va tadbirkorlar, ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari ishtirokida qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish hamda zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan amaliy seminar o'tkazdi.

Tadbirida qishloq xo'jaligida ilmiy yondashuvlarni kuchaytirish, hosildorlikni oshirish hamda resurslardan samarali foydalanish masalalari muhokama qilindi.

Ayniqsa, paxta va g'alla yetishtirishda diversifikatsiya, zamonaviy ekish texnologiyalarini joriy etish, urug'chilik tizimidagi yangiliklar hamda kartoshkachilik yo'nalishini rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi. Bioo'g'itlar, organik agrotexnologiyalar, suv tejavchi usullarni keng joriy etish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlarning amaliy ahamiyati ta'kidlandi.

Tadbir yakunida sayyor qabul tashkil etilib, fermerlarning taklif va murojaatlari tinglandi. Ayrim masalalar joyida hal qilindi, muammolar yuzasidan mas'ullarga topshiriqlar, zarur huquqiy tushuntirishlar berildi.

"Shaffof qurilish" qanday ishlayapti?

Oliy Majlis Senatining 13-yalpi majlisida jamiyat hayotining barcha sohalari huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samaradorligini oshirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 17 ta masala, shu jumladan, 8 ta qonun muhokama qilindi.

Xususan, hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va qurilishlarni tartibga solish bo'yicha ko'rilayotgan choralar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so'rovi natijalari ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, parlament so'rovida ko'tarilgan masalalar yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizim yaratilib, ushbu tizim Adliya vazirligining "Notarius", Ichki ishlar vazirligining "E-ma'muriy ish", Oliy sudning "Adolat", Kadastr agentligining "UzKad" axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan.

Bugun noqonuniy qurilmalarni bartaraf etish bo'yicha sudlarga inson omilisiz to'g'ridan-to'g'ri avtomatik tarzda da'vo kiritish mumkin. Bundan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar ham onlayn rejimda "Ogoh fuqaro" platformasi orqali vakolatli organga

xabar berishlari mumkin.

Shuningdek, Davlat arxitektura nazorati departamenti hamda tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limlari xodimlari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini olish uchun attestatsiyadan o'tkazilgan hamda maxsus guvohnoma ega.

So'rovda ko'tarilgan masalalarning ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-sentabrdagi tegishli qarori qabul qilingan. Unga muvofiq Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi zimmasiga buyurtmachining texnik nazorati va loyiha tashkilotlarining mualliflik nazoratini hamda pudrat tashkiloti ichki nazorat tizimining ishlashi us-tidan davlat nazoratini amalga oshirish va monitoring qilish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarori bilan tasdiqlangan 6 ta ma'muriy reglamentga o'zgartirish va qo'shim-

chalar kiritilgan. Misol uchun, arxitektura rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish, loyiha-smeta hujjatlarini kelishish, qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun obyektni ro'yxatdan o'tkazish va qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektidan foydalanish uchun ruxsatnoma berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, Arxitektura-shaharsozlik kengashlarining faoliyati raqamlashtirilib, qurilishga doir loyiha-smeta hujjatlarini "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali kelishish tartibi joriy etilgan.

Muhokamada amalga oshirilgan ishlardan tashqari, o'z yechimini kutayotgan masalalarga ham e'tibor qaratildi.

Shuningdek, buyurtmachi hokimliklar bo'lgan loyihalarda o'zlashtirish hajmi 2,5 trillion so'm yoki umumiy limitga nisbatan 87,1 foizni tashkil etgan.

Muhokama yakunida Senatning yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishga hamda bu borada parlament nazoratini olib borishga qaratilgan qarori qabul qilindi.

Maryam NIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

► 2026-yil – "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"

TOYLOQ

ishsizlikdan xoli hudud bo'ladi(mi?)



Bugungi kunda tumandagi mahallalarning 18 tasi ma'lum bir yo'nalish bo'yicha "chuqur" ixtisoslashgan bo'lsa, 28 tasi "o'rta" ixtisoslashgan va 4 tasi "og'ir" ixtisoslashgan hisoblanadi. Bu yil "o'rta" va "og'ir" toifadagi 10 ta mahallani "chuqur" ixtisoslashgan mahallalar qatoriga qo'shib, 9500 nafardan ortiq aholining bandligini ta'minlash va daromadini oshirish belgilangan.

NAYMANLIKLAR NIMA BILAN BAND?

To'rt ming nafardan ko'proq aholi yashayotgan Nayman mahallasidagi 590 xonadonning asosiy qismi kartoshka va sabzavot yetishtirish bilan, 100 dan ortiq xonadon esa mevali va manzarali daraxt ko'chatlari tayyorlash bilan shug'ullanadi.

– Mahallamizdagi har bir xonadonning kamida 8-10 sotix tomorqa yeri bor, – deydi Toyloq tumani Nayman mahallasi raisi Nizom Sattorov. – Bundan tashqari, fermer xo'jaligida pudrat asosida ishlaydigan, ijaraga yer olib

ishlaydigan oilalarimiz ko'p. Tomorqa yerlarida asosan meva-sabzavot, ko'chat yetishtiriladi, chorva, parranda boqiladi. Ko'plab xonadonlarimizda issiqxonalar tashkil etilgan va ular yil davomida kichik yerdan mo'l daromad qilishadi. Umuman, bizda yil davomida yerdan kamida ikki-uch marta hosil olinadi. Bekorchi odam deyarli yo'q. Xorijga ish izlab ketgan fuqarolarimiz yuz nafarga yetmaydi, ular ham yurtimizga qaytib kelib, shu yerda rizq-nasibasini topyapti. 60 ga yaqin oila kambag'al oilalar reestriga kiritilgan, lekin ularning ham o'ta nochorlari juda kam. Tani-joni sog' odam qo'ni-qo'shnisiga qarab, ulardan o'rganib mehnat qilyapti, ro'zg'orini tebratyapti. Mahalla va mahalladoshlarimiz ham bunday oilalarga imkon qadar ko'maklashyapti, hech bo'lmaganda, ishlashi, biror kasb-hunar bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratib beryapmiz. Faqatgina nogironligi bo'lgan yoki surunkali kasalligi bo'lgan mahalladoshlarimiz tomorqada ishlashga qiynalishi mum-

kin, ammo ularning ham yeri bo'sh qolmaydi. Qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni bunday oilalarga tomorqada ekin ekish va parvarishlashda ko'maklashyapti.

Shu mahallada yashovchi Zafar Jo'rayev o'zining 4-5 sotix keladigan hovlisi bilan birga 10 sotix tomorqa yerida ham mevali daraxt ko'chatlari yetishtirish bilan shug'ullanar ekan. Ho-zirda bahorgi mavsumda sotish uchun hovlisida 15 ming tup ko'chat tayyorlab qo'ygan.

– Olma, o'rik, gilos, nok, shaftoli singari o'nga yaqin mevali daraxt ko'chatlarimiz bor, – deydi Zafar Jo'rayev. – O'zim va turmush o'rtog'im, uch nafar farzandim shu yumush bilan bandmiz. Xudoga shukr, mehnatimizga yarasha daromad qilyapmiz. Ko'chatlarimizni turi va naviga qarab 10 ming so'mdan 40 ming so'mgacha sotamiz. Mahallamiz ko'chatchilar mahallasi bo'lgani uchun respublikamizning turli hududlaridan bog'bonlar, fermerlar o'zlari kelib, ko'chatlarni olib ketishadi. Bundan tashqari, bahor va kuzda mahallamiz yaqinidan o'tgan M-39 avtomobil yo'lining yoqasiga ko'chat chiqarib sotayotganlarning ham aksariyatini naymanliklar tashkil etadi.

KECHPISHAR O'RIK KO'CHATLARI BOR

O'z tomorqasidan tashqari fermer xo'jaligidan 50 sotixgacha yerni ijaraga olib mehnat qiladigan Lutfulla Zayniyev yetishtirgan ko'chatlarni asosan, ulgurji xaridorlar olib ketadi.

– Har yili 15 mingdan 50 mingtagacha ko'chat tayyorlaymiz, – deydi Lutfulla Zayniyev. – Bizga ko'proq fermerlar, yirik bog'dorchilik xo'jaliklari buyurtma berishadi yoki bizdan ko'chat olganlardan eshitib, o'zlari izlab keli-shadi. Masalan, to'rt xil navdagi olma ko'chatlarimizni asosan Baxmal tuman bog'bonlari olib ketishadi, besh xil navli gilos ko'chatlarimizga vodiylilar xaridor.

(Davomi 3-sahifada) ►►►



Kambagʻal va kambagʻallik chegarasidagi oilaning farqi nimada

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-yanvardagi “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga koʻra, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillarining ogʻir hayotiy vaziyatga, shuningdek, kambagʻallikka tushib qolishining oldini olish, ularning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratish, moliyaviy barqarorligini oshirish va salohiyatini roʻyobga chiqarishga qaratilgan davlat ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari taqdim etishning yangi tizimi joriy etildi.

2026-yil 1-fevraldan boshlab «Ijtimoiy himoya yagona reestri» va Kambagʻal oilalar reestri negizida yagona ijtimoiy reestr yuritilmoqda. Unda Ijtimoiy reestr — «Yagona milliy ijtimoiy himoya» axborot tizimida yuritilib, davlat ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari taqdim etiladigan oilalarni aniqlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash vazifalarini bajaradi.

Mazkur Ijtimoiy reestrda oilalar ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, uch toifaga ajratiladi. Tartibiga muvofiq, oila aʼzolari mehnatga layoqatsiz yoki mehnat qilish imkoniyati cheklangan va ularning har biriga toʻgʻri keladigan jami oʻrtacha oylik daromadi minimal isteʼmol xarajatlari kam boʻlgan oilalar «davlat taʼminotidagi oila» toifasiga kiritiladi.

Oila aʼzolari mehnatga layoqatli yoki mehnat qilish imkoniyatiga ega boʻlgan va ularning

har biriga toʻgʻri keladigan jami oʻrtacha oylik daromadi minimal isteʼmol xarajatlari kam boʻlgan oilalar «kambagʻal oila» hisoblanadi.

Oila aʼzolarining har biriga toʻgʻri keladigan jami oʻrtacha oylik daromadi minimal isteʼmol xarajatlari kam boʻlgan oilalar «kambagʻal oila» hisoblanadi.

Ijtimoiy reestrda oilalar ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, uch toifaga ajratiladi. Tartibiga muvofiq, oila aʼzolari mehnatga layoqatsiz yoki mehnat qilish imkoniyati cheklangan va ularning har biriga toʻgʻri keladigan jami oʻrtacha oylik daromadi minimal isteʼmol xarajatlari kam boʻlgan oilalar «davlat taʼminotidagi oila» toifasiga kiritiladi.

Oila aʼzolari mehnatga layoqatli yoki mehnat qilish imkoniyatiga ega boʻlgan va ularning

mat va yordam koʻrsatish tizimi joriy etiladi. Yaʼni, fuqaro ijtimoiy reestrda kirish toʻgʻrisidagi arizada bir nechta xizmat va yordamlarni soʻrab murojaat qilishi ham mumkin. Oilaning imkoniyatlari, koʻnikmalari, qiziqishlari, fikri, yashash sharoiti hamda arizada koʻrsatilgan xizmatlarga boʻlgan ehtiyojlari inobatga olingan holda individual reja ishlab chiqilib, ijtimoiy xizmat va yordamlar koʻrsatiladi.

Shuningdek, “mahalla yetilligi”ga ogʻir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarni “tavsiya” asosida Ijtimoiy reestrda kiritish huquqi ham beriladi.

I va (yoki) II guruh nogironligi boʻlgan shaxs yoxud bolalikdan nogironligi boʻlgan shaxs, boquvchisi yoʻqotgan yoki bolasini yolgʻiz tarbiyalayotgan, oʻzgalar parvarishiga muhtoj yolgʻiz yashovchi hamda yolgʻiz shaxs, oila aʼzosi muddatli harbiy xizmatda yoki jazoni ijro etish muassasasida boʻlgan oilalar ham reestrda kirishlari mumkin.

Shuningdek, oila aʼzolaridan biri psixiatriya, narkologiya, sil kasalliklari dispanserida yoki onkologiya markazlarida roʻyxatda yoxud gematologiya, immunologiya, jigar, buyrak yetishmovchiligi kabi ogʻir kasallikka chalingan boʻlsa, yongʻin, baxtsiz hodisa, tabiiy yoki texnogen favqulodda vaziyatlardan jabrlangan oilalarni “mahalla yetilligi” tavsiyasi asosida reestrda kiritish imkoniyati yaratiladi.

Kambagʻallik chegarasidagi oilalarni qoʻllab-quvvatlash tizimiga asosan bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam 6 oy davomida oilaning daromadiga qarab toʻlanadi. Bunda tayinlangan nafaqa oilaning daromadi minimal isteʼmol xarajatlari kam boʻlgan oilalar «kambagʻal oila» hisoblanadi.

Bugungi kunda viloyatimizdagi **1 million 82 ming 846 ta oilaning 85 ming 135 tasi ijtimoiy reestrda oilalar hisoblanadi.** Undan 31848 tasi davlat taʼminotida, 46213 tasi kambagʻal va 7074 tasi esa kambagʻallik chegarasidagi oilalar toifasiga kiritilgan. Bunday oilalar Narpay (10,4 foiz) va Oqdaryo (10,6 foiz) tumanlarida boshqalarga nisbatan koʻproq aniqlangan boʻlsa, Samarqand shahri (4,2 foiz) va Qoʻshrabot (6 foiz) tumanida kamroq roʻyxatga kiritilgan.

Abbos SAʼDULLAYEV, Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi ijtimoiy toʻlovlar shuʼbasi mudiri.

Joriy yilda aholi bandligini taʼminlash, kambagʻallikni qisqartirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Avvalo, mahallalarning ixtisoslashuviga eʼtibor qaratyapmiz. Har bir mahallaning oʻziga xos imkoniyati, tabiiy resurslari, aholining koʻnikmalari va salohiyatidan kelib chiqib, muayyan bir yoʻnalishda ixtisoslashgani aniqlanadi. Bunda mahallalar toifalarga ajratiladi. Ayni paytda viloyatdagi 1063 ta mahallaning 170 tasi past, 476 tasi oʻrta va 417 tasi chuqur ixtisoslashgan.

MAHALLALAR ixtisoslashuvi

aholi daromadini oshiradi

Joriy yilda “Uzagrostar xolding” kompaniyasi va uning taʼsischiligidagi ixtisoslashgan kompaniyalar koʻmagida 261 ta mahalladagi 117 ming 173 xonadon tomoqasi va uzoq muddatli ijara-ga berilgan yer maydonlarida bir xil tur va standartdagi mahsulotlar yetishtirish hisobiga ixtisoslashuvini chuqurlashtirish koʻzda tutilgan.

“Har bir oila - tadbirkor” dasturi boʻyicha 320 milliard soʻm kredit mablagʻini yoʻnaltirishda birinchi navbatda, mahalla ixtisoslashuviga eʼtibor qaratiladi. Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik Davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan 19,9 milliard soʻmlik subsidiya va ssudalar ajratish hisobiga 2 mingga yaqin xonadon daromadini oshirish koʻzda tutilgan.



Qishloq xoʻjaligida “Loyihaviy yondashuvlar” asosida amalga oshiriladigan loyihalar doirasida bir qator ishlarni rejalashtirilgan.

Xususan, “Bir kontur - bir mahsulot” tamoyili asosida 7612 ta konturdagi 14,5 ming gektar ijara yer maydonida mahsulotlar yetishtirish hisobiga 653 ta mahalladagi 49 ming aholi daromadi oshiriladi. “Namunalni tomorqa” loyihasi doirasida 14 ta mahallada tanlangan xonadonlarga 392 million soʻm, “Namunalni va innovatsiyali xonadon loyihasi” doirasida 14 ta mahallada tanlangan xonadonlarga 496 million soʻm, “Eksportbop mahsulot yetishtirishni yoʻlga qoʻygan usta-dehqonlar” loyihasi doirasida 5 ta mahallaga 375 million soʻm, “Oʻquv tajriba uchastkalari tashkil etish” loyihasi doirasida 7 ta mahallaga 576,8 million soʻm subsidiya ajratilishi hisobiga aholi daromadi oshiriladi.

Shuningdek, “Uzum ishkomi” loyihasida 8 ta mahallaga 696,2 million soʻm ajratiladi.

“Ijara yer va tomorqada suv taʼminotini yaxshilash” loyihasini amalga oshirish hisobiga 21 ta mahallada 37 ta tik quduq qazish evaziga 309 gektar yer maydonining suv taʼminoti yaxshilanib, 733 nafar aholi daromadga yoʻnaltiriladi.

“1000 gektar mevali bogʻ” loyihasi doirasida Nurobod tumani Mashʼal mahallasida 100 gektar bogʻ tashkil qilinib, 300 nafar aholi bogʻdorchilik bilan shugʻullanishiga imkoniyat yaratiladi.

Viloyatda turizm loyihalarini

amalga oshirish hisobiga 19 ta mahallani turizmga ixtisoslashtirish hisobiga 419 nafar aholining bandligi taʼminlanadi.

150 ta mahallada 139 milliard 950 million soʻmlik 48 ta “Gavjum koʻchalar” va “Sohil va yoʻl boʻyi” loyihalari amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, sanoatda 12 ming 236 ta, xizmatlar sohasida 13 ming 314 ta, qishloq xoʻjaligida 17 ming 690 ta - jami 43 ming 240 ta mikroloyiha ishga tushirish hisobiga 86 ming 480 nafar fuqaroning bandligini taʼminlab, aholining daromadini oshirish rejalashtirilgan.

Moliyaviy resurslarni ixtisoslashuv yoʻnalishiga yoʻnaltirish orqali 130 ta mahalla oʻrta ixtisoslashuvdan chuqur ixtisoslashtirishga oʻtkaziladi.

Paxtachil tumani Suluvqoʻrgʻon mahallasida baliqchilik yoʻnalishini kengaytirish maqsadida 6 ta xonadonga 150 million soʻm kredit ajratildi. Mazkur xonadonlar baliqchilik faoliyatiga ixtisoslashtirilib, suv havzalari barpo etildi va zamonaviy baliq yetishtirish uskunalari oʻrnatildi. Ushbu baliqxonalar orqali 64 nafar aholi doimiy ish oʻrniga ega boʻldi. Bu esa mahallaning iqtisodiy faolligini oshirib, aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Kelgusida ushbu yoʻnalishlarni yanada kengaytirish, dam olish maskanlari va xizmat koʻrsatish obyektlarini koʻpaytirish rejalashtirilgan.

Nazirjon TOLIBOV, viloyat kambagʻallikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi mutaxassisi.

Yurtimizda davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida tub oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Bunday sharoitda baʼzan vaqt va resurslar yetishmovchiligi sharoitida ham harakat qilishga toʻgʻri keladi. Qabul qilinayotgan qarorlarda fuqarolar va keng jamoatchilik manfaatlarini uygʻunligini taʼminlash juda muhim. Shuning uchun barcha sohalarida xalq bilan muloqot tamoyili ilgari surilmoqda.




Jamiatimizga jamoatchilik nazorati kerakmi?

Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining muhim ahamiyatini anglagan holda ularni qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish mexanizmlari joriy etilmoqda. Bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlari kengaymoqda, jumladan, NNTlar sohasidagi qonunchilikni liberalallashtirish yoʻlga qoʻyildi. Jamoat tashkilotlari faoliyatini chekllovchi toʻsiqlar bartaraf etilyapti. Fuqarolik jamiyati institutlariga ajratilgan subsidiyalar miqdori oxirgi 3 yilda ikki barobar oshdi. NNTlar uchun chet el grantlarini olish va ulardan foydalanishdagi toʻsiqlar olib tashlandi. Davlat organlari huzurida tashkil etilgan jamoatchilik kengashlari tarkibining teng yarmi aʼzolari nodavlat notijorat tashkilotlar va-killaridan olinishi belgilab qoʻyildi.

Shuningdek, bir qator yangi qonunlar va normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mingdan ortiq jamoatchilik nazorati tadbirlari oʻtkazildi.

Biroq bevosita jamoatchilik nazorati bilan shugʻullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlariga aksariyat davlat tashkilotlarining munosabati oʻzgarmayapti. Jamoatchilik nazorati tar-



Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida joriy yilning 27-yanvar kuni oʻtkazilgan selektor yigʻilishida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish boʻyicha olib borilayotgan ishlar yetarlicha tashkil qilinmaganligi yuzasidan soliq organlariga eʼtirozlar bildirildi.

Xususan, bozor va savdo komplekslarida soliqlarni toʻliq budjetga toʻlamaslik, tadbirkorlar tomonidan tovar aylanmalarini soliq hisobotlarida toʻliq koʻrsatmaslik, naqd pulning bankdan tashqari aylanmasi va boshqa koʻrinishdagi soliqdan qochish holatlari avj olib borayotganligi qayd etildi. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish boʻyicha soliq organlariga bir qator topshiriqlar berildi.

Topshiriqlar ijrosini taʼminlash maqsadida Samarqandda ham yirik savdo majmualari xususan, Urgut tumanidagi “URGUT SAVDO KOMPLEKSI” MCHJda xatlov amalga oshirilmogʻda.

Bu tadbirga 39 nafar xodim birlashtirildi. Xatlov boshlangan dastlabki kunlarda 71 holatda onlayn nazorat kassa mashinasi va toʻlov terminali oʻrnatmasdan faoliyat yuritish, 44 holatda QR-kod oʻrnatmasdan savdo qilish 114

Bozorlarda xatlov boshlandi



holatda davlat roʻyxatidan oʻtmasdan faoliyat olib borish, 57 ta holatda norasmiy ischilarni yollab, hujjatlashtirmasdan faoliyat yuritilayotgani aniqlandi.

Olib borilgan profilaktik va tushuntirish ishlari

faoliyati tekshirilmoqda.

Soliq xodimlari tomonidan xatlov ishlari davom ettirilmoqda.

Viloyat soliq boshqarmasi matbuot xizmati.

natijasida 71 ta obyekt onlayn nazorat kassa mashinalari va toʻlov terminali bilan jihozlandi, 44 ta obyekt QR-kod bilan taʼminlandi, 45 ta ijara shartnomasi rasmiylashtirilib, 114 nafar fuqaroning davlat roʻyxatidan oʻtkazilishi taʼminlandi. Shuningdek, 50 nafar norasmiy ischilarning faoliyati qonuniylashtirilib, mavjud kamchiliklar bartaraf etildi.

Jamiat faoliyati tahlil qilinganda 251,5 million soʻmlik soliqlar toʻlanmasdan qolganligi kuzatildi. Shu sababli bugungi kunda soliq auditi tashkil qilinib, moliyaviy xoʻjalik

TOYLOQ

ishsizlikdan xoli hudud boʻladi(mi?)

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Shaftoli, nok, oʻrik va boshqa koʻchatlarimizni ham yurtimizning turli hududlaridan kelib olib ketishadi. Keyingi yillarda iqlim oʻzgarib borayotgani va erta bahorda ayni daraxtlar gullagan paytda kutilmaganda qor yogʻishi va sovuq boʻlishi natijasida ayrim mevali daraxtlar hosili nobud boʻlyap-ti. Ana shunday holatlarni ham hisobga olgan holda sovuqqa chidamli va kech gullaydigan mevali daraxt navlarini koʻpaytirishga harakat qilyapmiz. Masalan, bu yil sentabrda pishadigan oʻrik daraxti koʻchatini tayyorladik. Umuman, faqat eski navlar bilan cheklanmay, xorijdan keltirilayotgan mevali daraxtlar va intensiv bogʻlar uchun ham koʻchatlar yetishtirishni oʻzlashtiryapmiz.

BEDANADAGI BARAKA

Naymanda bir nechta oila bedanachilik bilan shugʻullanar ekan. Azamat Hamroyev bu ishni mahallada eng birinchi boshlagan oilaviy tadbir-kor hisoblanadi.

– 9 yildan buyon shu ish bilan shugʻullanaman, – deydi A.Hamroyev. – Ungacha xorijga borib ishlardim va oiladan uzoqda boʻlish, turli sarson-garchiliklar jonimdan oʻtib ketgandi. Bedana boqib yaxshigina daromad qilayotganlar haqida eshit-gach, “nega boshqalar qilgan ishni men qila olmas ekanman”, dedim-u ularning tajribasini oʻrganib, shu ishga qoʻl urdim. Lekin ishni boshlash uchun ham qoʻlimda yetarli mablagʻ boʻlmagani sabab-li bankdan 33 million soʻm kredit olib, 1000 ta bedana boqish bilan ishni boshlaganman. Toʻgʻri, boshida biroz qiynalдим, daromad olish oson boʻlmadi. Ammo oʻqib-oʻrganib, bedanachilikning eng serdaromad ishligini amalga koʻryapman. Hozir 8 mingga yaqin bedanam bor. Kuniga 3000 tadan ortiq tuxum olaman va uning xaridori aniq. Uydan kelib olib ketishadi, doimiy buyurtmachil-larimiz bor. Toʻrt yil oldin inkubator olib kelib, bedana joʻlari ochirishni ham yoʻlga qoʻydim. Ayni paytda 60 mingga zotdor bedana tuxumini inkubatorga qoʻyganmiz. Yaqin bir oyda joʻjalar ochib chiqqach, ularni buyurtmachilarga yetkazib beramiz, oʻzim faoliyatni yana kengaytirmoq-chiman. Shu sohada ozmi-koʻpmi tajribaga ega inson sifatida aytishim mumkinki, 2000 ta bedana boqqan xonadan kuniga 100-150 ming soʻm daromad qilsa boʻladi. Bu ish juda murakkab ham emas, bir kishi bemalol uddalasa boʻladi.

Nayman mahallasida koʻrganlarimiz va aholi-ning fikrlarini eshitganlarimiz asosidagi xulosa-miz shunday – agar inson hayotini oʻzgartirish, farovon yashashga intilsa, mehnatdan qoch-masa, albatta bunga erisha oladi. Ana shunda nafaqat oʻsha oila yoki maʼlum bir hudud, balki butun mamlakat kambagʻallikdan xoli boʻla oladi.
Gʻolib HASANOV,
Alisher ISROILOV (surat).

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti oʻzining qariyb bir asrlik tarixiy yoʻlini bosib oʻtgan ilm maskani sifatida bugun nafaqat ilmiy salohiyati, balki boy anʼanalari bilan ham eʼtirof etiladi.

Institut tarixi 1931-yil fevral oyida Toshkentda tashkil etilgan Oʻrta Osiyo rejalashtirish institutidan boshlanadi. U rejali iqtisodiyot uchun malakali mutaxas-sislar tayyorlash maqsadida tuzilgan. 1935-yilda Oʻzbekiston SSR Davlat reja qoʻmitasi tasarrufiga oʻtkazilib, Samar-qandga koʻchirildi va bu yerning ilmiy-madaniy muhiti uning rivojiga ijobiy taʼsir qildi. Oʻtgan asrning 30-yillari oxirida taʼlim yoʻnalishlari kengaytirildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida faoliyati qiyinlashgan boʻlsa-da, urushdan keyin moddiy-texnik baza va ilmiy salohiyat mustahkamlandi. 1960-yil 23-noyabrda institut ittifoq tasarrufiga oʻtkazilib, Sa-marqand kooperativ instituti maqomini oldi va savdo hamda xizmat koʻrsatish sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan yetakchi markazga aylandi.

Institut taraqqiyotida ilmiy maktab-larning shakllanishi muhim oʻrin tutdi: dastlab professor-oʻqituvchilar soni kam boʻlgan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan ilmiy-pedagogik salohiyat mus-tahkamlanib, mahalliy kadrlar safining

Ustozlar maktabi va maʼnaviy meros

kengayishi taʼlim sifati va tadqiqotlar rivojiga turtki berdi. Ilmiy izlanishlar faollashib, yangi metodik yondashuvlar joriy etildi va natijada mustahkam ilmiy maktab vujudga keldi. Iqtisodiy bilimlar bilan birga pedagogik madaniyat va ustoz-shogird anʼanalari rivojlanirildi. Sobiq ittifoq oliy taʼlim muassasalari orasida Samarqand kooperativ instituti savdo, xizmat koʻrsatish va kooperatsi-ya sohalar uchun yirik kadrlar tayyor-laydigan nufuzli markaz sifatida alohida mavqega ega boʻldi.

1998-yildan institut Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tizimiga oʻtka-zilib, taʼlim mazmuni modernizatsi-ya qilish hamda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirishga yoʻnaltirildi. 2004-yil 26-martdagi hukumat qaroriga koʻra, Samarqand iqtisodiyot va servis in-stituti sifatida qayta tashkil etildi va iqtisodiyot, servis, marketing, logistika, turizm, menejment, buxgalteriya hisobi va statistika kabi yoʻnalishlarda mu-taxassislar tayyorlaydigan zamonaviy ilmiy-taʼlim markaziga aylandi. Bugun-gi kunda institut respublika oliy taʼlim tizimida mustahkam oʻrin egallab, ilmiy salohiyati, tajribasi, zamonaviy tex-nologiyalar va xalqaro hamkorlik asosi-da taʼlim sifatini yuksaltirib kelmoqda.

Har qanday oliy taʼlim muassasasining



obroʻsi avvalo, unda faoliyat yuritayotgan ustozlar salohiyati va fidoyiligi bilan bel-gilanadi. Institut tarixida kasbiga sado-qat bilan xizmat qilgan ustozlar alohida oʻrin tutadi. 1986-yilda “Savdoni tashkil etish va savdo texnologiyalari” kafedra-sida ish boshlaganimda jamoada ilmiylik va oʻzaro hurmat muhiti hukm surardi. Kafedra rahbari Raʼno Toʻychiyevna talabchan va gʻamxoʻr rahbar sifatida, Ahmadjon Soliyev, Yoʻldosh Abdulla-yev, Ruslan Ibragimov kabi ustozlar esa bilimdonligi va pedagogik madaniyati bilan yoshlarga ibrat boʻldi. Shuningdek, Shavkat Samiboyev, Azim Ishonqulov, Dilara Abbasova, Sultonmurod Adilov, Halim Hamroyev, Fayzulla Ahmedov, Ergash Rajabov, Mavlon Boyzoqov, Rahmatillo Siddiqov, Maʼruf Toʻraqulov, Shoira Mamatqulova, Shoira Musayeva kabi fidoyi ustozlar institut ilmiy muhitini

shakllantirdi. Oʻquv jarayonining uzluk-sizligini taʼminlagan Alla Kochemazova, Maya Usmanova, Feruza Naberayeva kabi jonkuyar xodimlarning xizmati ham alohida eʼtirofga loyiq.

Bugun ushbu ustozlarning koʻpchili-gi oramizda yoʻq. Ammo ular yaratgan ilmiy maktab, ustoz-shogird anʼanalari va maʼnaviy meros yashab kelmoqda. Institutning bugungi yutuqlari va ilmiy salohiyatida ana shu boy merosning oʻrni beqiyos. Hozirgi jamoa shu anʼanalarga tayangan holda zamonaviy taʼlim stand-artlari asosida malakali kadrlar tayyorlab, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirmoqda va ishlab chiqarish hamda xizmat koʻrsatish sohalar bilan hamkorlikni mustahkam-lamoqda. Shu bilan birga, talabalarning nafaqat kasbiy bilimlari, balki maʼnaviy barkamolligi va jamiyat oldidagi masʼuli-yatini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Institutning 95 yillik yubileyi uning tarixi-dagi muhim va sharafli bosqich boʻlib, bu sana boy oʻtmishni yodga olish bilan birga, erishilgan yutuqlarni sarhisob qilish, kela-jak oldidagi masʼuliyatni chuqur anglashga chorlaydi.

Ibodulla IBRAGIMOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti.

Shisha tarixi haqida nimalarni bilasiz?

honchli boʻlgan afsonalar ham mavjud. Ulardan biri-ga koʻra, bir kuni Finikiya savdogarlari qumli sohilda tosh yoʻqligi sababli Afrika sodasidan oʻchoq quradi-lar. Ertasi kuni esa oʻchoq kullari orasidan yaltiroq shisha quymasini topib oladilar. Qizigʻi shundaki, shi-sha tarixi boshqa koʻplab materiallardan farqli oʻla-roq, deyarli oʻzgarishsiz holda bizgacha yetib kelgan. Ilk yaratilgan shisha namunasi tarkib jihatidan hozirgi oddiy oynadan koʻp farq qilmaydi.

OʻRTA OSIYODA SHISHASOZLIK ANʼANALARI

Oʻrta Osiyoda shishasozlik miloddan avvalgi V asrdan maʼlum. Bu haqda yozma manbalar va arxe-ologik topilmalar ishonchli dalil boʻla oladi. Xitoy yilnomalarida ham Oʻrta Osiyo shisha mahsulotlari haqida aniq maʼlumotlar keltirilgan. Manbalarga koʻra, mahalliy ustalar rangli shishadan imperator-ga taxt yasab berganlar, shuningdek, Xitoyga bir nechta bor yuqori sifatli qizil va zumrad rangli shisha buyumlar olib borilgan. Oʻrta osiyolik olimlar shisha-ning fizik va kimyoviy xossalarini chuqur oʻrganib, uni turkumlarga ajratganlar hamda yoqt, olmos, mar-ganes rudasi kabi qimmatbaho moddalar qatoriga kiritganlar. Ular shisha hosil boʻlish jarayoni qaytmas

reaksiya ekanini va uning solishtirma ogʻirligini ilmiy asosda birinchi boʻlib aniqlaganlar.

SHISHA PUFLASH SANʼATI

Qadimda shisha puflash usuli keng tarqalgan boʻlib, u yopishqoq eritmadan turli shakldagi buyum-lar yasash imkonini bergan. Bu jarayonda shishapaz deb ataluvchi ustalar maxsus metall quvur — shisha puflagich yordamida ish olib borganlar. Ana shu usul asosida Xorazm, Samarqand, Buxoro, Quva kabi shi-shasozlik maktablari shakllangan. Ushbu hududlarda olib borilgan arxeologik qazishmalar davomida turli maqsadlarda ishlatilgan shisha buyumlarning topilishi buning yaqqol isbotidir.

Xullas, shisha norgonik, izotrop modda boʻlib, qadim zamonlardan beri inson hayotida muhim oʻrin tutadi. U tabiatda obsidian kabi vulqon shishasi koʻrinishida uchraydi, ammo asosan sunʼiy ishlab chiqariladi. Shisha eritish harorati uning tarkibiga bogʻliq holda +300˚S dan +2500˚S gacha yetadi. Shishaning zichligi kimyoviy tarkibiga bogʻliq.

Bahriiddin BOLIYEV,
Samarqand arxeologiya instituti kichik ilmiy xodimi.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va eʼlonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DAʼVOLAR BOʻLSA...

Ishtixon tuman davlat xizmatlari markazidan 2025-yil 17-oktabrda 184713 reestr raqami bilan roʻyxatga olingan “MANSUR POLVON QORAXONIY” dehqon xoʻjaligi (qisqartirilgan nomi: “MANSUR POLVON QORAXONIY” DX) ixtiyoriy ravishda tugatilmogʻda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha eʼtirozlar gazetada eʼlon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

Xoʻjalikning pochta manzili: Oʻzbekis-ton Respublikasi Samarqand viloyati Ishtixon tumani, Miton shaharchasi, Gagarin koʻchasi, 55-uy.

Xoʻjalikning soliq toʻlaydigan identifikatsion raqami (STIR): 488390639.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasida marhum Ablakulov Turakulga (2023-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino koʻchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Bagirov Yadullo Xamrokulovichga (2020-yil 29-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy koʻchasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Mamedov Murad Aliyevichga (2025-yil 5-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosa-bat bilan merosxoʻrlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohkoʻchasi, 157-“B” uy. Moʻljal:

Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari boʻlimi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Djurayev Sobir Tuxtayevichga (2024-yil 16-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur koʻchasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Burxanovna Xalovatga (1992-yil 6-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Ilna Olga Mixaylovnaga (2025-yil 26-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sugʻdiyona maskani, 14/12-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasida marhum Omonov Jurakulga (2021-yil 5-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq koʻchasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Tursunov

Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Ahtamova Muqadasga (2015-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy koʻchasi 200-uy 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasida marhum Fayziyeva Nilufar Baxtiyorovnaga (2025-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso koʻchasi, 4-“A” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Axtamov Tuxtamurod Sharipovichga (2024-yil 9-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notariuslarda marhum Ibadullayev Buriboy Nasirovichga (2022-yil 11-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Mansurov Sobirga (2018-yil 18-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun me-ros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

YIGʻILISHDA QATNASHING!

Samarqand shahridagi “Marmar dehqon bozori” maʼsuli-yati cheklangan jamiyati taʼsischilarining navbatdan tashqari umumiy yigʻilishi 2026-yil 6-mart kuni soat 10:00 da jamiyat maʼmuriy binosida boʻlib oʻtadi.

Yigʻilishga barcha taʼsischilarni taklif etamiz.

Manzil: Samarqand shahri Shohrux koʻchasi, 33-uy.

“Marmar dehqon bozori” MCHJ binosi.

JAMIYAT MAʼMURIYATI.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Past Dargʻom tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil oʻgʻli notarial idorasida marhum Ruziyev Pardaga (2022-yil 4-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Xamidov Norbek Komil oʻgʻli notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Past Dargʻom tumani Juma shaharchasi, Amir Temur koʻchasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Kazimova Zaynabga (2020-yil 11-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Akbarov Shaxzod Komiljon oʻgʻli va sotib oluvchi Asadov Suxrob Samatilloevichlar oʻrtasida Samarqand shahri “Oʻzbekiston” MFY, Buloq koʻchasi 27-sonli uy turidagi koʻchmas mulkning 3/100 qismi uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot

bilan shugʻullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2023-yil 25-oktabrda tasdiqlanib, Ksh 134174 SA blankada tuzilgan, 202301714005191 raqam bilan reestrda kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi va ushbu uyning kadastr hujjatlari yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand viloyat ilmiy tibbiyot kutub-xonasi boshlangʻich kasaba uyushma qoʻmitasining (STIR: 207153804) davlat roʻyxatidan oʻtganligi toʻgʻrisidagi guvohnomasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi

TOPGANGA MUKOFOT!

Toyloq tuman Oʻzagroinspeksiya boʻlimi-dan 2020-yil 24-sentabrda Bobokulov Oxunjon Raxmatilloevichga berilgan TMG098320 TOT098320 raqamli A,B,C,D seriyali traktorchi-mashinist guvohnomasi Toyloq tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini soʻraymiz.

Telefon: +99893-947-07-88.

Toyloq tuman Oʻzagroinspeksiya boʻlimi-dan 2012-yil 6-iyunda Bobokulov Rashid Raxmatilloevichga berilgan THG151801 TGT151801 raqamli A,B,C,D,E seriyali traktorchi-mashinist guvohnomasi Toyloq tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini soʻraymiz.

Telefon: +99893-947-07-88.

Rahmat, mag'firat va najot oyi

Kun mavzusi

Ramazon shunchaki ro'za tutadigan oy emas. Bu niyatlar to'g'irlanib, qalb poklanadigan, inson o'zini qayta kashf etadigan muborak palladir. Ramazon ro'zasi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkadan Madinaga hijrat qilganlaridan ikki yil o'tib, sha'bon oyining 18-kuni farz qilingan. Shundan buyon uni butun dunyo musulmonlari xursand bo'lib kutib oladi. Jumladan, yurtimizda ham azaldan Ramazon muqaddas va ulug' oy sifatida qadrlanib kelinadi.

Bu oy xalqimizning nafaqat diniy, balki ma'naviy hayotida ham alohida o'rin tutadi. Ramazon kelishi bilan yurtda o'ziga xos ruhiy muhit, poklik, mehr-oqibat va birdamlik hissi shakllanadi. Odamlar orasida sabr-toqat, bag'rikenglik va mehr-shafqat tuyg'ulari kuchayadi. Keksalarga hurmat, yoshlarga izzat, muhtojlarga yordam ko'rsatish kabi qadriyatlar yanada jonlanadi.

Iftorlik dasturxonlari atrofiga qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', do'st-birodarlar jam bo'lib, duolar qilishi va ma'naviy suhbatlar qurishi xalqimizga xos go'zal an'analardan biridir.

Ramazon oyida xayr-saxovat ishlari bajariladi. Sadaqa, ehson, zakot va xayriya tadbirlari bahonasida kam ta'minlangan oilalar, yetim-yesirlar va bemorlar holidan xabar olinadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni yanada mustahkamlaydi.

Masjidlarda taroveh namozlari, Qur'on tilovati va ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar ko'payib, insonlarni ezgulikka, poklikka va halollikka chorlaydi. Ramazon nafaqat ibodat oyi, balki tarbiya oyi ham — nafsni tiyish, yomon odatlardan voz kechish, yaxshi xulq-atvorni mustahkamlash davri.

Ramazon — rahmat, mag'firat va najot oyi. Uning dastlabki o'n kunida Allohning

rahmati yog'iladi, ikkinchi o'n kunligida tavba qilgan bandalarning gunohlari mag'firat etiladi, uchinchi o'n kunida mo'min-musulmonlar do'zaxdan ozod qilinadi.

Salmon Forsiy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "U avvali rahmat, o'rtasi mag'firat va oxiri do'zaxdan ozod qilinadigan oydir", dedilar".

Bu oyda mo'minlar qiladigan barcha duo va ibodatlar alohida huzur-halovat bag'ishlaydi, ruhiy taskin bilan birga ulkan ajr-savobga ham sabab bo'ladi. Ramazonda ro'zador insonning o'qigan namozi, aytgan tasbehi, hatto uyquasi uchun ham ajr-savob yoziladi.

Yurtimizda Ramazona munosabat faqat diniy ibodat bilan cheklanib qolmay, umummilliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Hatto ro'za tutmaydigan insonlar ham bu oyga hurmat bilan qarab, ro'za tutuvchilarga ehtirom ko'rsatadi. Bu xalqimizning bag'rikengligi va ma'naviy madaniyati yuksak ekanidan dalolat beradi.

Alloh taolo yurtimizda Ramazon shukuhini yanada ziyoda qilsin!

Yo'ldoshxon ISAYEV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi.

Tobutpo'sh qadimdan dafn marosimlarida qo'llanilib, marhumni hurmat-ehtiromlar bilan kuzatish maqsadida tobut ustiga yopilgan maxsus mato hisoblangan. Islom dini tarqalishi bilan tobutpo'sh ma'naviy va diniy mazmun kasb etib, poklik, ehtirom hamda oxiratga hozirlik ramzi sifatida qabul qilingan. Bezagi va kim uchun ishlatilishiga qarab oddiy, diniy yozuvli, bezakli, maxsus hamda mahalliy urf-odatlariga xos turlari shakllangan.

1941-yilning 19-iyun kuni Sohibqiron Amir Temur qabri ilk bor ochilganida, uning jasadi archadan ishlangan tobutga solib dafn etilgani aniqlanadi. Tobut usti qoramtir ko'kish rangli gazlamadan tayyorlangan tobutpo'sh bilan yopilgan bo'lib, tobutning o'zi qoramtir rangda, baquvat va silliqlangan taxtalardan yasalgan, alohida qopqoqqa ega bo'lgan. Tobut qopqog'i ustida ikki qismdan iborat gazlama parchalari topilgan. Ushbu gazlamaning bosh qismida oltin iplar bilan ishlangan naqshlar saqlanib qolgan. Biroq qabrni suv bosgani sabab gazlama yomon saqlangan, chirigan holatda bo'lgani uchun naqshning to'liq ko'rinishini tiklash imkoni bo'lmagan. Shu bilan birga, gazlamaning ipakdan nafis qilib to'qilgani, uning o'rta qismida esa oltin iplar bilan arabcha imlodan bitilgan yozuvlar mavjudligi aniqlangan.

Ehtimol, mazkur yozuvlar Qur'on oyatlaridan iborat bo'lgan, ammo gazlamaning butun holda saqlanmagani yozuvlar ma'nosini aniqlashga imkon bermagan. Arxeolog V.Shishkinning taxminiga ko'ra, Amir Temur tobuti ustiga yopilgan mazkur gazlama biror avliyoning qabri ustidan olingan yoki Ka'badan olib kelingan bo'lishi mumkin. Ma'lumki, Ka'ba ustiga yopiladigan ulkan choyshab har yili yangilanib, eskisi esa tumor yoki muqaddas yodgorlik sifatida hojilarga tarqatilgan. Shu bois maz-

VIJDONNING BUGUNGI SO'ROG'I

Qarindoshingizni ishga olishdan avval bu joyga munosibroq boshqa kishi borligini bilarmidingiz?

Yo'l,

yo'lovchi

va

haydovchi

Ko'proq Toshkent va Samarqandda bo'lganim uchun shu ikki shahardagi madaniy, ijtimoiy va siyosiy-iqtisodiy hayotni kuzatishga harakat qilaman. Bu ikki shaharda deyarli butun aholi telefonga mukkasidan ketib bo'lgan. Ayni paytda, umumtransport vositalarida, taksilarda odamni juda noqulay ahvolga soladigan "innovativ madaniyatsizlik" shunchalik avj olib ketdiki, ortiq bu ko'zga chiqqan terskandek bezovtalik bera boshladi.



Masalan, taksiga o'tirasiz va odatda, taksi haydovchilarining juda kam foizi o'z mehnatiga mas'uliyat bilan yondashib ishlayotganini ko'rasiz. Negaki, ular bu kasb etikasini hech qachon o'rganmagan va yaqin yillarda o'rganmasha ham kerak. Taksichilar ish faoliyatlarini davomida kasallik darajasida telefonlari bilan band bo'lishadi, kamiga, Toshkentda va Samarqandda (menimcha bu butun respublika bo'ylab bo'lsa kerak) taksilarga monitor qo'yib olish urfga kirganidan bu moni-

torlarda manzilingizga yetguncha har baloni ko'rishga majbursiz. Eng yomoni, bizdagi taksilar faqat bir kishini emas, yo'ldan odam terib olib yurgani uchun ana endi taksiga har yosh, har jinsdan mijozlar minib-tushib yuradi. Monitorada esa, ajnabiy qo'shiqning sharm — hayodan uzoq bo'lgan klipi vadavang. Shaxsan o'zim, bunday holatga bir necha marta tushdim va ogohlantirishga majbur bo'lib, taksi va uning haydovchisi qanaqa bo'lishi haqida va'z o'qishimga ham to'g'ri keldi.

Mulohaza

AKSIGA OLIB, AVTOBUSLARDAM HAM SHU AHVOL

Taxminan, avtobusdagi bugungi umumiy ahvolimiz shunday: avtobus haydovchisini shaxsiy musiqiy qiziqishlari bor va u avtobusda o'sha qo'shiqlarni qo'yib oladi. Yo'lovchilar ham yosh — qari, erkak — ayol farqi yo'q, hamma qiziqqan narsani eshitishga tushadi.

Xullas, avtobusga chiqib ishga borguncha, bor g'ayratingiz o'lib, shalpayib qolasiz. Bo'lar-da, rosa xunobingiz oshib, "iltimos, madaniyatli bo'laylik" deb qolsangiz bormi, hamma sizga Marsdan tushgan odamdek baqrayib qoladi.

Taklifim, bu sohalarga mas'ul bo'lgan tashkilotlar, mutasaddilar va jamoatchilik kerakli va tegishli tartib-nizomlarni belgilab olishi, hamda, bunga qat'iy amal qilishni, amal qilmaganlarni esa tegishli tartibga bo'ysinishini ta'minlash kerak, degan fikrdaman.

Davlat vatandoshlarga qo'lidan kelgan barchasini qilyapti, biz ham shunda yarasha bo'lishimiz kerak emasmi? Biz o'z mamlakatimizda shunday bir qoidani shakllantirishimiz kerak "yo'l, yo'lovchi va haydovchi bu - madaniyat".

Fazliddin MA'DIYEV.

Viloyatimiz hududida sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan yuzga yaqin tarixiy va madaniy obyektlar mavjud. Xususan, YUNESKONing umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand tarixiy markazi 1123 gektar maydonni egallasa, uning muhofaza zonasi 1369 gektarni tashkil etadi.

O'lkashunoslik muzeyi ta'mirlanadi



Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Ziyodulla Nasimovning ta'kidlashicha, o'tgan yil viloyatda 15 ta madaniy meros obyektida ta'mirlash ishlari olib borilgan. Joriy yilda ham shuncha obyektda keng ko'lamli ta'mirlash-tiklash, restavratsiya va konservatsiya ishlari amalga oshirish rejalashtirilgan.

— Ushbu obyektlar ro'yxati Madaniy meros agentligiga taqdim etilgan va ruxsat olingach, Samarqand shahrida joylashgan o'nta tarixiy obyektda ta'mirlash-tiklash ishlari boshlanadi, — deydi Z.Nasimov. — Ular qatoriga Registon majmuasi (Ulug'bek, Sherdor va Tilla Qori madrasalari), Amir Temur maqbarasi, Qozi Abdurashul va Xon Said Imom majmualari, Kavazor hamda Qozi G'ofur mahalla masjidlari, Xo'ja Said Ahmad Xavosiy majmuasi, Ashratxona maqbarasi va viloyat o'lkashunoslik muzeyi kiradi. Shuningdek, Kattaqo'rg'on shahridagi XIX–XX asrlarga mansub So'fi Olloyor va Qalandarxona majmualari, Payariq tumanidagi Olim Shayx, Samarqand tumanidagi Maqsumbek hamda Narpay tumanida joylashgan, XVII–XIX asrlarga oid Xo'ja Karzon masjid majmualarida ham ta'mirlash ishlari olib borilishi belgilangan.

Manzilli dastur doirasida viloyatdagi

195 ta madaniy meros obyektiga muhofaza belgilari o'rnatiladi. Shu bilan birga, Urgut tumanidagi "Chorchinor" ziyoratgohi ta'mirlanadi, Samarqand tumanida joylashgan 23 ta madaniy meros obyektining kadastr hujjatlari rasmiylashtiriladi. Bundan tashqari, viloyatdagi qadimiy yodgorliklar holati o'rnatilib, ularning tarixiy-madaniy qiymatiga ta'siri bo'yicha tegishli ekspertizalar tayyorlanadi.

Yil yakuniga qadar Kofirqal'a yodgorligini arxeologik parkka aylantirish bo'yicha loyiha yakunlanadi va yodgorlikni ilmiy o'rganish, hudud chegaralarini belgilash, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, infratuzilmani shakllantirish hamda uni ochiq muzey sifatida faoliyatga joriy etish ko'zda tutilgan. Qizilartepa yodgorligini arxeologik parkka aylantirish bo'yicha esa amaliy ishlar olib borilib, tadqiqotlar natijalariga asosan yodgorlikni konservatsiya qilish va ochiq ekspozitsiya tashkil etish rejalashtirilgan.

Ushbu ishlar nafaqat tarixiy obidalarining asrlar davomida saqlanib qolishini ta'minlaydi, balki viloyatning turistik jozibadorligini oshirish, yangi sayyohlik yo'nalishlarini shakllantirish hamda mahalliy aholi uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Amir Temur tavalludining 690 yilligiga

Amir Temur qabridan topilgan tobutpo'sh

Sohibqironning jangovar bayrog'imi?

kur gazlamaning kelib chiqishi ham muqaddas manba bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

1941-yilning 16-24-iyun kunlari ekspeditsiya tomonidan Amir Temur maqbarasidagi qabrlar birin-ketin ochildi. Qazishmalar yakunlanib, qabrlardan chiqarib olingan Amir Temur, Mironshoh, Shohruh, Ulug'bek va Muhammad Sultonlarning suyaklari maxsus qutilarga joylanib, Toshkentga olib ketiladi. Amir Temur maqbarasidan qazib olingan suyaklar ilmiy jihatdan o'rganib bo'lingach, 1942-yilning oxirlariga kelib, qaytadan o'z joyiga dafn etiladi. Lekin tobut bilan birga, qabrlardan olingan ko'pgina narsalar, gazlamalar, Mirzo Ulug'bekning liboslari, marhumlarning mo'miyolangan tana a'zolari, kafanlar, soch-soqqallari qayta o'z joyiga qo'yilmagani bois Samarqand muzeyida saqlanadi. Jumladan, Sohibqiron tobutining qopqog'i va tobut ustiga yopilgan gazlama bo'lagi ham. Aynan qabr ochilgan paytda ekspeditsiya rahbari bo'lgan Toshmuhammad



Qori-Niyoziy (1897-1970) jurnalistlarga bergan intervyusida tobut ustiga yopilgan mato qoldiqlari Sohibqiron Amir Temurning jangovar bayrog'i bo'lishi mumkinligi haqidagi taxminni ham ilgari surgan. Qayd etilishicha, tobut ustiga yopilgan gazlama qora rangda bo'lib, ipakdan to'qilgan va tobut qopqog'ini butunlay qoplab turgan.

Amir Temur qabri ochilganida tobut qabrdan chiqarilgach, qayta dafn etishga yaroqsiz bo'lgani uchun qaytarib joyiga qo'yilmagan. Keyinchalik restavratsiya qilinib "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasiga topshirilgan va uzoq mudat muzeyda saqlangan. Hozirda

Sohibqironning jasadi solingan yog'och tobut va uning ustiga yopilgan tobutpo'sh Amir Temur maqbarasiga olib kelinib, maxsus himoya tizimi bilan jihozlangan holda zamonaviy vitrinada o'rnatilgan.

To'liq BO'RIYEV,
"Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi tarix bo'limi boshlig'i.

